Aribjanova Umida Abdurashitovna,
Andijon davlat universiteti "Umumiy psixologiya"
kafedrasi tayanch doktoranti

O‘SMIRLARDA DAXLDORLIK FAZILATINI NAMOYON BO’LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

УЎК: 159.922.7-053.6(043.3)
DOI: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_12_2

ARIBJANOVA U.A. O‘SMIRLARDA DAXLDORLIK FAZILATINI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mazkur maqolada o‘smirlarda daxldorlik fazilatini namoyon bo’lishining psixologik xususiyatlari jumladan o‘quvchilarni maktab ta’lim, oiladagi odat va islohotlarga bo‘lgan daxldorligi o‘rganildi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: daxldorlik, ta’lim, tarbiya, motiv, ustanovka, fazilat, xususiyat, psixologik omil axloq, illat, tahdid, ma’naviyat, ma’rifat.

АРИБЖАНОВА У.А. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ КАЧЕСТВА ПРИЧАСТНОСТИ

В данной статье изучены психологические особенности проявления у подростков качества причастности, в том числе, причастности учащихся к школьному образованию, семейным обычаям и реформам.

Ключевые слова и понятия: актуальность, образование, воспитание, мотив, институт, качество, особенность, психологический фактор, нравственность, порок, угроза, духовность, просвещение.

ARIBJANOVA U.A. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EXEMPLIFICATION OF THE ATTITUDE CHARACTER IN ADOLESCENTS

In this article, the psychological characteristics of the manifestation of the quality of involvement in adolescents, including the involvement of students in school education, family customs and reforms, were studied.

Key words and concepts: involvement, education, training, motive, institution, virtue, characteristic, psychological factor, morality, vice, threat, spirituality, enlightenment.

Kirish. Bugungi kunda Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti, BMT Xavfsizlik Kengashi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha tashkiloti Parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar aksilterror markazi, Islom mamlakatlari uchun statistik, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar va treninglar markazi, YUNESKO kabi dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot hamda ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tadqiqotlarda "daxldorlik", "ogohlik", "hushyorlikni oshirish" masalalari yetakchi o'rinni egallaydi.

Ushbu masala o'nlab xalqaro tadqiqot markazlari va dunyoning yirik ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan muntazam izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa o'smirlarning jamiyatdagi voqea va hodisalarga ijtimoiy faol munosabatda bo'lish, daxldorlik fazilatini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni amalga oshirishga bevosita bog'liqdir.

Qolaversa mamlakatimizda yosh istiqbolli avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarni keng targ'ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininig 2019 yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarorida[1] yoshlarda "daxldorlik" va "mas'uliyat" kabi tayanch kompetensiyaviy fazilatlarni maktab yoshidan boshlab shakllantirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek mazkur masalada zamonamizda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurash kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda turli xil ichki va tashqi, ochiq va yashirin tahdidlarga nisbatan o'smirlarimizda daxldorlik fazilatini shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishning psixologik omillarini tadqiq qilish, o'smirlarda yonatrofda yuz berayotgan voqealarga nisbatan daxldorlik fazilatini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Qarorlarini[2], [3], [4] qabul qilinishi ham jamiyatda mazkur masalani nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili: Daxldorlik masalasi Sharq mutafakkirlari Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning asarlari o'rganilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar E.G'oziev, M.Quronov, N.Safaev, F.Nabiev, Q.Nazarov, Sh.To'raev, A.Xolbekov, S.Mamashokirov, V.M.Karimova, A.Jabborov, A.Erkaev, O.Bozorov, N.Majidov, Sh.Abdullaeva, O.Musurmonova, S.Nishonova, *U.Mahkamov,* F.Ravshanov, X.Jabborov va E.Shermonov kabilarni tadqiqotlarida daxldorlik fazilating g'oyaviy, siyosiy, falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlari o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan, E.B.Pirogova, L.I.Sokolova, Y.S. Mishenko, S.V. Ponomarev, A.T.Kamzanova, Ye.Koloskova, Z.A. Semenova, T.P. Nesterova, R.A. Doljenko, T.Karapetyan, S.Maddi, D.A.Leontev, T.Yu.Bazarov, B.L.Eremin, O.B.Antonov, N.I.Shatalova, G.Latfullin, O.Gromova, S.Ogursov, A.N.Suxov, A.A.Derkach, N.G.Maloshonoklarning tadqiqotlarida yoshlarning g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashi xususiyatlarini ilmiy pedagogik-psixologik jihatdan o'rganganlar.

Xorijlik tadqiqotchilar E.Fromm, J.Russo, K.Tomson, A.Astin, E.Klinger, Uilyam Kan, V.Shaufeli, A.B. Bakker, M.P.Leiter, T.Schwartz, S.D.Saleh, J.Hosek, W.A.Kahn, Dj.Meyer, N.Allen, K.Maslax, L.Feyerbax, R.Peysa, D.N.Prokofev, P.L.Landsberg, E.Mune, V.F.Gegel, K.Yaspers, R.Peysa, V.Tinto, E.Paskarelli, S.Kleyna, Dj.Rayanlarning ishlarida daxldorlik fazilatining tarkibiy sifatlari, daxldorlik fazilatini shakllan-


[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarori.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarori.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-sonli qarori.

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040 qarori.

1-rasm. Respondentlarning "Sizningcha maktabda yanada a'lo baholarga o'qishingizga nimalar salbiy ta'sir o'tkazmoqda?" degan savolga bergan javoblari.



tirish masalasini ma'lum darajadagi jihatlarni ko'rish mumkin.

Tadqiqot maqsadi o'smirlarda daxldorlik fazilatini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

daxldorlik fazilatini shakllanishi muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish;

o'smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatini shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyat va omillarni aniqlash (yosh, jins, hudud kesimida);

o'smirlarning islohotlarga daxldorlik fazilatlariga bog'liq bo'lgan shaxsliylik xususiyatlari, irodaviy sifatlar, kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi, shaxs yo'nalganligi, refleksiya darajalari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish;

o'smirlarda islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllanganlik darajalarini aniqlash;

o'smirlarda daxldorlik fazilatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash;

o'smirlarda daxldorlik fazilatini shakllanishi bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Mazkur tadqiqotda biz o'quvchi yoshlarni davlatimizda bo'layotgan islohotlar jumladan oilada, ta'limda bo'layotgan o'zgarishlarga munosabatini o'rganish orqali ularda daxldorlik fazilatlarini shakllanganlik darajalarini bilishni maqsad qildi.

Tadqiqotning ob'ekti. Mazkur tadqiqotimizda Namangan hamda Andijon viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan 8 va 10 sinf o'quvchilaridan jami 610 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar quyidagicha natijalarni qayd qildi. Quyidagi ma`lumotda 8-sinflardan (n=340), 10 sinflarda (10-sinf (n=270) 610 nafar qatnashgan bo`lib, ulardan 290 nafar qiz bola, 320 nafari o'g'il bolalarni tashkil etgan.


Tadqiqotning usullari. Biz tadqiqotimizda aynan o'quvchilar guruhi uchun aynan ushbu metoddan foydalandik. Shuningdek o'quvchilarni o'zini o'zi idora qilgan holda yagona maqsadga erishish vositalarini amalda sinab ko'rishni tatbiqiy maqsad sifatida belgiladik[1].

Ilmiy manbalarda keltirilishisha, "korporativ uyushma", "korporativ tashkilot" kabi tushunchalar o'rnida ilgari "ijtimoiy normalar", "guruhning ma'naviy muhiti", "boshqaruv muhiti" kabilar ishlatilgan.

Natijalar va amaliy misollar. O'quvchilarga 1-savol "Sizningcha maktabda yanada a'lo baholarga o'qishingizga nimalar salbiy ta'sir o'tkazmoqda?" savol berildi va quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi (1-rasm).

[1] Норкулова Н.Т. Аффилиация мотиви - талабалар маънавий қиёфасини шакллантирувчи ижтимоий-психологик омил. Психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. - Тошкент – 2016. - 350 б.

2-rasm. Respondentlarning “Siz qaysi ijtimoiy tarmoqlarni ko‘proq kuzatib borasiz?” degan savolga bergan javoblari



	8 sinf	10 sinf	Qiz bolalar	O'g'il bolalar
Whatsapp	2,1	0	0	2,5
Facebook	4,2	0	0	5,0
Instagram	35,4	34,4	27,5	42,5
Telegram	39,6	43,8	55,0	27,5
Tiktok	8,3	12,5	5,0	15,0
Boshqalar	10,4	9,4	12,5	7,5

Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki 8 sinf o‘quvchilarining **26,3%** 10 sinflarning **55%** maktabda yanada a’lo baholarga o‘qishinga **foydalanadigan kitoblarning qiziqarli emasligini** ko‘rsatishdi. Mazkur qo‘lga kiritilgan empirik natijalar ichida yana ko‘zga yaqqol tashlangan ko‘rsatkichlar **kelajakdagi tanlamoqchi bo‘lgan kasbim bo‘yicha aniq yo‘nalishdagi fan repititorlariga borayotganligi** 8 sinf o‘quvchilarida **47,3%** 8 sinf o‘quvchilarida esa **15%** ni tashkil qilgan. Shuningdek mazkur tahlildan ko‘rish mumkinki o‘quvchilarni yanada a’lo baholarga o‘qishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar maktab darsliklarining o‘ta ilmiy va murakkab tilda yozilganligini qiz bolalarni **17.6%** va o‘g‘il bolalarni **25%** takidlashgan. **Tavsiya:** Tegishli mutasaddi tashkilot va vaziliklarga maktab darsliklarini qiziqarli va maktab yoshiga mos ravishda soddaroq va didaktik tamoyillar asosida yaratish bo‘yicha taklif kiritish.

O‘quvchilarga **2-savol “Siz qaysi ijtimoiy tarmoqlarni ko‘proq kuzatib borasiz?”** savol berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi (2-rasm).

Yuqoridagi empirik natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak o‘quvchilarni aksariyati jumladan 8 sinf o‘quvchilarini **39.6%** va 10 sinflarni **43.8% “Telegram”** ijtimoiy tarmog‘ida, o‘g‘il bolalarning **42.5%** va qiz bolalarning **27.5% “Instagram”** ijtimoiy tarmoqlarini ko‘proq kuzatishlarini aytishgan. Shuningdek o‘quvchilar **“Whatsapp”**, **“Facebook”**, **“Tiktok”** kabi ijtimoiy tarmoqlarini ham ma’lum darajada kuzatib borishlarini ta’kidlashgan.


Tavsiya: Yoshlarning aksariyat qismi “Telegram” va “Instagram” ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanishadi shuning uchun yoshlar siyosati, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarni aynan shu tarmoqlarda kuchaytirish va ayna shu tarmoqlarda targ‘ibot ishlarini kuchaytish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarga **3-savol “Siz kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz?”** savol berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi (3-rasm).

Yuqoridagi jadvalni tahlili qiladigan bo‘lsak o‘quvchilarning aksariyati **biznesmen** kasbini tanlashgan, ya’ni 8 sinf o‘quvchilarining **18,1%,** 10 sinf o‘quvchilarining **20%**, qiz bolalarning **18,9%** va o‘g‘il bolalarning **29,6%** shu kasb egasi bo‘lishini ta’kidlashgan. Tashvishli signallardan biri o‘g‘il bolalarni birortasi **o‘qituvchilik** kasbini tanlamagan,biroq 8 sinf qizlarining **27,2%** va 10 sinf qizlarining **8%** o‘qituvchilik kasbini tanlagan. Kasblar ichida qizlar **harbiy** kasbini tanlamaganligi ko‘zga tashlandi.**Tavsiya:** O‘quvchilar orasida vatanparvarlikka qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytish, yigitlar orasida o‘qituvchilik, qiz bolalar orasida harbiy kasbi bo‘yicha ma’lumotlarni kengaytirish va mazkur kasblarga nisbatan o‘quvchilarda ijobiy munosabatni shakllantirish lozim.


O‘quvchilarga **4-savol “Siz o‘qiyotgan maktabda qaysi sport to‘garaklari bo‘lishini xoh-**

3-rasm. Respondentlarning “Siz kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz?” degan savolga bergan javoblari.



	8 sinf	10 sinf	qiz bolalar	o‘g‘il bolalar
Shifokor	13,64	16	16,22	11,11
O‘qituvchi	27,27	8	21,62	0
Xuquqshunos	4,55	4	5,41	0
Xarbiy	0	12	0	11,11
Biznesmen	18,18	20	18,92	29,63
Aytichnik (dasturchi);	4,55	12	5,41	14,81
Boshqalar	31,82	28	32,43	33,33

4-rasm. Respondentlarning “Siz o‘qiyotgan maktabda qaysi sport to‘garaklari bo‘lishini xohlar edingiz?” degan savolga bergan javoblari.




	1	2	3	4
Tennis	18,37	20	25	13,16
Futbol	12,24	30	0	31,58
Boks	14,29	0	6,25	13,16
Karate	8,16	0	6,25	5,26
Txekvondo	6,12	10	0	13,16
Kurash	2,04	0	0	2,63
Dzyudo	8,16	5	3,1	10,53
Kikboks	22,45	15	40,6	2,63
Sport bilan shug‘ullanmayman	8,16	20	18,8	7,89

lar edingiz?” savol berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi (4-rasm).

Yuqoridagi tahlillardan aniq bo‘ldiki 15 va 324 maktablarida qiz bolalar orasida **Tennis** (**25%**), **Kikboks** (**40.6%**), o‘g‘il bolalar orasida **Futbol** (**31.5%), Boks** (**13.6%)** sport to‘garaklariga ehtiyoj kattaligi ta’kidlangan. Mazkur so‘rovdan ayon bo‘ldiki 8 sinflarni **8.1%,** 10 sinflarni **20%**, o‘g‘il bolalarning **7.8%** va qiz bolalarning **18.8%** sport bilan shug‘ulanmayotganligini ta’kidlashgan.

5-rasm. Respondentlarning “Siz o‘qiyotgan maktabda qaysi fan to‘garaklari bo‘lishini xohlar edingiz?” degan savolga bergan javoblari.



	8 sinf	10 sinf	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Chet tili	47,73	43,48	58,33	32,26
Matematika	6,82	8,70	5,56	9,68
Fizika	6,82	0	0	9,68
Tarix	2,27	4,35	0	6,45
Kompyuter dasturchi	18,18	4,35	13,89	12,90
Hali o‘ylab ko‘rmadim	11,36	21,74	8,33	22,58
Boshqalar	6,82	17,39	13,89	6,45

Tavsiya: O‘quvchilar tomonidan ehtiyoj sezilayotgan sport to‘garaklarini ochish bo‘yicha amaliy yordamlashish, qiz bolalar orasida sport faoliyati bilan shug‘ullanishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.


O‘quvchilarga **5-savol “Siz o‘qiyotgan maktabda qaysi fan to‘garaklari bo‘lishini xohlar edingiz?”** savol berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi (5-rasm).

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi: Mazkur jadvaldagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak o‘quvchilarni aksariyati o‘z maktablarida chet tilini o‘rgatishga qaratilgan fan to‘garaklari ochilishini xohlashlarini ta’kidlashgan. Jumladan 8 sinf o‘quvchilarining **47.7%** va 10 sinf o‘quvchilarini **43.4%** chet tilidan to‘garaklar ochilishini yo‘qlashgan. Ushbu tahlillarga ko‘ra qiz bolalar (**58.3%)** o‘g‘il bolalar (**32.2%)**ga nisbatan chet tili bo‘yicha fan to‘garaklarini ochilishini yo‘qlab ovoz berishgan. Mazkur savolnomadan xavf signali bo‘yicha 8 sinf o‘quvchilarini **11.3%,** 10 sinflarni **21.7%,** qiz bolalarni **8.3%** va o‘g‘il bolalarni **22.5%** fan to‘garaklari bo‘yicha hali o‘ylab ko‘rmaganliklari tashvishli holat hisoblanadi.

Tavsiya: Mazkur maktablarda chet tili, matematika, fizika, tarix, kompyuter dasturchisi kabi fan to‘garaklarini tashkil etish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarni **25%** ortig‘i hali fan to‘garaklari haqida fikrlarini yo‘qligi bu tashvishli signal hisoblanadi. Shuning uchun mazkur maktablarda o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga nisbatan motivlarini oshirish bo‘yicha hamkorlikdagi seminar-treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiq.


O‘quvchilarga 6-savol **“Maktabni tamomlagandan keyin nima bilan shug‘ullanmoqchisiz?”** savol berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi (6-rasm).

6-rasm. Respondentlarning “Maktabni tamomlagandan keyin nima bilan shug‘ullanmoqchisiz?”degan savolga bergan javoblari.



	8 sinf	10 sinf	Qiz bolalar	O`g`il bolalar
Ishlab pul topmoqchiman	14,3	13,8	6,3	20,5
O‘qishga kiramoqchiman	47,6	48,3	65,6	33,3
Armiyaga ketamoqchiman	0,0	10,3	0,0	7,7
Oila quramoqchiman	9,5	3,4	0,0	12,8
Hali rejalashtirmadim	0,0	17,2	12,5	2,6
Chet elga ketmoqchiman	28,6	6,9	15,6	23,1
Boshqalar	0,0	0,0	0,0	0,0

7-rasm. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga daxldorligi va mas‘uliyat darajasi.



Yuqoridagi tahlillar o‘quvchilarni aksariyati maktabni tugatganidan so‘ng **oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishlari maqsadlari ustuvor ekanligini ko‘rsatdi**. Jumladan 8 sinf o‘quvchilarini **47,6%**, 10 sinflarni **48,3%** maktabni tugatganidan so‘ng oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishlarini ta’kidlashgan. Mazkur ko‘rsatkichlarda tashvishli signallar ham bor jumladan o‘g‘il bolalar (**33,3%)** qiz bolalar (**65,6%)**ga nisbatan oliy ma’lumotli bo‘lish istaklari pastligini ko‘rsatdi. Maktabni tugatib chet elga ketish istagi qiz bolalar(**15,6%)**ga nisbatan o‘g‘il bolalar(**23,1%)**da ustuvor maqsadlardan biri ekanligi ham aniqlandi.


Tavsiya: O‘g‘il bolalar orasida oliy ma’lumot bilan bog‘liq targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, hamkorlikda o‘quvchilar orasida ilm olish, ma’rifatli bo‘lish, kasbiy ustanovkalar bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi 6 ta savol asosida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga daxldorligi va mas‘uliyat darajasi aniqlandi (7-rasm).


Yuqoridagi 6 ta savol asosida o‘quvchilarni islohotlarga nisbatan daxldorligi darajasi aniqlandi (8-rasm).

Tadqiqotimizni so‘ngi bosqichi o‘quvchilarni oiladagi voqeliklarga daxldorligini o‘rganish

8-rasm. O‘quvchilarning islohotlarga nisbatan daxldorligi daxldorligi darajasi.



9-rasm. O‘quvchilarning oiladagi voqeliklarga nisbatan daxldorligi darajasi.



bo‘ldi va biz quyidagicha qiziq empirik natijalarni qo‘lga kiritdik [3]. O‘quvchilardan sizningcha “Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima xalaqit beryapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga 28%i, ota-onalar tarbiya metodlarini yaxshi bilmaydi, 18%i tarbiyadagi oilaning mas’uliyatini anglamaydi deb, 22% i farzandi bilan muloqot qilmasligi deb javob berishgan bo‘lsa 32%i mazkur savolga bilmayman deb javob bergan, bu ko‘rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e’tibor borasida masalani jiddiy o‘ylab ko‘rishlarini taqozo qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Biz tadqiqot davomida o‘quvchilarni daxldorlik fazilatlarini psixologik xususiyatlarini ham tadqiq qildik. Jumladan bizningcha daxldorlik fazilatini tayanch psixologik xususiyatlarini mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, jur’atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat’iylik, g‘ayratlilik, e’tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik kabilar tashkil etadi va biz ularni daxldorlik fazilati bilan a’loqasini ham o‘rgandik.

Mazkur metodika shaxsdagi mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, jur’atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat’iyatlilik, g‘ayratlilik, e’tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metodikani qo‘llashimizdan maqsad o‘quvchilarning irodaviy sifatlari bilan axloqiy-ma’naviy jarayonlarning o‘zaro aloqadorligini aniqlashdan iboratdir.

1-jadval. Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki umumiy ma’lumotlar

№	Omillar	Yigitlar N=320	Foizi	Qizlar N=290	Foizi
1.	Mas’uliyatlilik	48	15,2	41	14,1
2.	Tashabbuskorlik	52	16,5	32	11,3
3.	Jur’atlilik	39	12,1	26	8,6
4.	Mustaqillik	50	15,4	36	12,3
5.	Matonatlilik	16	5,1	34	12,0
6.	Qat’iylik	18	5,6	23	7,9
7.	G‘ayratlilik	37	11,5	29	10,1
8.	E’tiborlilik	39	12,1	42	14,4
9.	Maqsadga intiluvchanlik	21	6,5	27	9,3
	Jami:	320	100	290	100

2-jadval. O‘zini o‘zi nazorat qilish turlari bo‘yicha sinaluvchilar ko‘rsatkichlarining taqsimoti

O‘zini o‘zi nazorat qilish turlari	Statistik ko‘rsatkichlar	
	M - o‘rtacha arifmetik qiymat	S^2 - standart og‘ish darajasi
Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish	12,91	7,65
Faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish	17,64	14,03
Ijtimoiylashuv jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish	17,71	11,05

Endi, maktab o‘quvchilarining axloqiy-ma’naviy hamda shaxsiy xususiyatlari va fazilatlariga ta’sir etuvchi irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichlari bo‘yicha gender farqlarining umumiy sharhiga to‘xtalib o‘tamiz.

Maqsad – irodaviy sifatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni hamda o‘zini o‘zi idora qilish komponentlari qaysi irodaviy sifatlar bilan bog‘liqligini aniqlash edi.

Yigitlarda irodaviy sifatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar “tashabbuskorlik” 16,5 %, “mustaqillik” 15,4 %, “mas’uliyatlilik”, 15,2 % bo‘lsa, quyi ko‘rsatkichlar “maqsadga intiluvchanlik” 6,5 %, “qat’iylik” 5,6 “matonatlilik” esa 5,1 % ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, maktab o‘quvchilarining axloqiy sifatlarida muhim xususiyatlardan hisoblangan “maqsadga intiluvchanlik”, “qat’iylik”, “matonatlilik” sifatlari nisbatan kam miqdorlarda shakllangan ekan. Qizlarning ushbu metodika bo‘yicha natijalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunda eng yuqori ko‘rsatkichlar “mas’uliyatlilik” 14,1 %, “e’tiborlilik” 14,4 % va “mustaqillik” 12,3 % bo‘lsa, quyi ko‘rsatkich esa “maqsadga intiluvchanlik” 9,3 %, “jur’atlilik” 8,6 %, “qat’iylik” 7,9 % ko‘rsatkichlar miqdorida namoyon etildi.

Keltirilgan natijalarga ko‘ra, o‘smirlar guruhida emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish past ko‘rsatkich (M=12,91) ni tashkil qiladi. Shu bilan birga sinaluvchilarning natijalari o‘rtasida tarqoqlik holati kuzatilmaydi. Bu, bizningcha, o‘smir turli tashqi ta’sirlarga, atrofdagi insonlar jamoasi bilan o‘zaro munosabatlarida, shuningdek, o‘zi bilan o‘zi kelisha olmasligi natijasida yuzaga keladigan ziddiyatli noxush holatlarga uning nisbatan birdek javob reaksiyasini namoyon qilishi tufaylidir. Shuni ta’kidlash kerakki, emotsional holatlar qanday darajada namoyon bo‘lishi, nerv jarayonlarining tizimi va individual psixologik xususiyatlarga bog‘liqligi o‘smirlik davrida, ayniqsa, yaqqol ifodalanadi. Shu sababli ham emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilishning shakllanish xususiyatlarini o‘smirlar misolida o‘rganish ancha qulay.

Xulosalar: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, daxldorlik fazilati odamning ijtimoiy mavjudot sifatidagi manfaatlaridan kelib chiqib, o‘z funksiyasini bajarishi yoki bajarmasligini hal qiluvchi ilk signal, tanlash nuqtasi bo‘lib, aynan mazkur funksiya uning psixologik tabiatidir. Bugungi kunda o‘quvchilar orasidagi islohotlarga, fan-ta’limga, oila va jamiyatda bo‘layotgan e’tiborsizliklari tufayli tiklab bo‘lmas ofat, jinoyat, halokatlar sodir bo‘lish ehtimoli yo‘q emas ekan, daxldorlik fazilati va uning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish orqali mazkur fazilatni har bir o‘zbekistonlik yosh yigit-qizning kompetensiyaviy fazilatiga aylantirish o‘ta muhim ijtimoiy-psixologik zarurat deb aytishimiz mumkin.

2. O‘smirlarda daxldorlik fazilatini namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari

yuzasidan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo aynan o'smirlarda daxldorlik fazilatini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari muammosi psixologiyada o'zining muayyan nazariy-metodologik bazasiga ega bo'lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar ko'lami hali o'zining mukammal yechimlariga ega bo'lmaganligini ko'rsatadi.

3. Empirik tahlillar ko'rsatkichlari o'smirlarda individuallikka nisbatan jaomoaviylik kuchaygan sari ularda daxldorlik fazilati yaqqolroq namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ya'ni o'smir shaxsida jaomaviylikka bo'lgan ehtiyojni yuqoriligi uning jamoadoshlari va uning faoliyatiga nisbatan daxldorligini ham shuncha yuqoriligini asoslaydi, shaxsdan individuallik kuchayib borgan sari shaxsdagi daxldorlik fazilati faqatgina o'ziga qaratilar ekan. Buni psixologiyadagi egoizm va alturizm tushunchalari bilan ham izohlash mumkin.

Taklif va tavsiyalar.

1. Ota-onalarga va o'qituvchilarga o'smirlik davriga xos "o'z-o'zini anglash", "zamon va makonni ob'ektiv anglash", "o'z imkoniyatlarini real va ob'ektiv baholash", "xulq-atvorni ijtimoiy shartlanishi" "ijtimoiy normalarni anglashi", "milliy xarakter va milliy qadriyatlarga yo'nalganligi", "jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishi" kabi daxldorlik faziltining ustuvor sifatlari bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq;

2. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan o'smirlarda islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shaklanganlik darajalarini aniqlash imkonini beruvchi "Daxldor fuqaro" nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnomasini ta'lim muassalarida o'tkazib, qo'lga kiritilgan empirik natijalar asosida psixokonsultatsiyalar berib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040 qarori.

5. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

6. Норкулова Н.Т. Аффилиация мотиви - талабалар маънавий қиёфасини шакллантирувчи ижтимоий-психологик омил. Психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. - Тошкент – 2016. - 350 б.